

## QOBILIYAT

### **CHORIYEVA SHODIYONA BAYRAMALI QIZI**

*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti fakulteti talabasi*

**Anotatsiya.** Siz ushbu maqolani o'qish davomida qobiliyat qanday paydo bo'lishi va mashhur qobiliyatli insonlar aniq strategiyalari, hozirgi kundagi yoshlarning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ma'lumot olasiz

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, shaxsiy rivojlanish, ko'nikma,

Qobiliyat — insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat insonga berilgan in'om sifatida qaraladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyat aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, obyektidan u yoki bu alomatlarini ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir. Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'ladi.

o'ylash qobiliyatini barqaror rivojlantirish, insonga ijtimoy ongi va

ma'naviyatiga yangi darajani beradi. Shuningdek, yigit va qizlar o'zlarining shaxsiy fikrlarini tahlil qilishni vaboshqalarga nisbatan munosabatni vaboshqalarning ularga nisbatan munosabatlarni o'zgartiradi

“Dihotomiya” - o'ng va chap miya qismlari bu fikr sizni osonlik bilan fikrdan chalg'itishi mumkin deb ogohlantirgan edi (Sperry 1982). Hatto biz hikoya o'qiyotganimizda miyaning ikkala qismi ishlaydi - chap qism so'zlar va uning ma'nosini topadi, o'ng qismi hazil, hissiyot va tasavvumi baholaydi (Hellige, 1993).

Britaniyaning Kolumbiya universitetidagi psixolog Stenli Koren, “Chapaqay sindromi” asarida jumalistika qanday qilib ko'pincha ilm fanni soddalashtirishi va bezaklikni ko'rsatadi. U majlislarning birida psixolog Dorin Kimuraning nutqini eshitganini eshladi, unda aytilishi cha, chap quloq bilan musiqani eshitgan insonlar, o'ng quloq bilan musiqani eshitgan insonlardan ko'ra tezroq eslashdi. o'quvchilarni ustidan tajriba o'tkazib shuni bildikki, chap quloq o'ng miyadagi hujayraga ko'proq ma'lumotlar o'tkazib beradi va o'ng hujayra tashqarisidagi musiqalarni yaxshiroq o'zlashtiradi. Bir necha kundan keyin, New York Times jumali yozdiki, London psixologi (Ontario viloyati) Dorin Kumura shuni aniqladiki, musiqiy qobiliyatlar miyadagi o'ng hujayra bilan boshqariladi. Psixologiyada qobiliyat individual-psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va uning asosida har bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlarini yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyati bo'yicha bir biridan muayyan darajada farq qiladi. Binobarin, ular o'rtasida sifat va miqdor jihatidan farqlar ko'p bo'lishi mumkin. Qobiliyatning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'liq tez, oson, puxta foydalana

olishini namoyon qiladi Odatda odam olti tilni o'zlashtira olishi va ulardan faqat uchtasidagina mukammal so'zlasha olishi mumkin. Qolganlarida esa ozgina xatolar bilan gaplashish yoki yozishishlari mumkin. Lekin ajabo – Garold Uilyam 58 ta tilni mukammal o'zlashtira olgan! Uilyam 1876 yilning 6 aprelida Yangi Zelandiyadagi Oklend shahrida dunyoga keldi. Bolaligida u hamma qatori oddiy bola bo'lib ko'rindi. Biroq 7 yoshida u turli chet tillarni o'zlashtirishi kerak edi. Birinchilardan bo'lib o'zlashtirish uchun qiyin bo'lgan lotin tilini o'rgandi. Maktabga qadam qo'yayotganida Uilyam 10 ta tilni bilar edi. U Oklanddagi universitetda, so'ngra Myunhendagi universitetda tahsil oldi va 26 yoshida lingvistika (tilshunoslik yo'nalishi) bo'yicha falsafa doktori darajasiga erishdi. Otasi ruhoniy bo'lgan Uilyams ham shu yo'lni tanladi va shu mavzuda ikkita kitob yozdi. U shuningdek jurnalist hamda Britaniya elchisining Rossiya ishlari bo'yicha maslahatchisi ham bo'lib ishlagan. Ba'zi guvohlarning aytishlaricha, u rus tilida ruslardan ham yaxshi so'zlasha olgan va yozgan. Garold Uilyamsning shuncha tillarni o'zlashtira olish qobiliyati – inson miyasining imkoniyatlari chegarasidan o'tib ketadi. Shu kungacha Uilyams kabi shu darajada ko'p tillarni bilgan bironta inson topilmagan va bundan keyin ham paydo bo'lishi amrimahol. Hozirgi kunda yoshlarimiz uchun bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularga qo'shimcha o'quv markazlari sport majmualari, san'at maktablari , o'quv dargohlari barpo etilmoqda Yuqoridagi aytib o'tilgan ma'lumotlardan xulosa chiqarish mumkinki qobiliyat rivojlanishi kerak chunki rivojlanmasa u yo'qolib ketishi mumkin .

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qobiliyat>
- 2 Anjem Shamshetova Umumiy psixologiya 223 - 224 betlar
- 3 <https://odam.uz/news/qiziqarli-malumot-gayrioddiy-qobiliyatga-ega-bolgan-noyob-insonlar-ontaligi>